

*Nyutonning birinchi qonuni. Inersiyal sanoq sistemasi.*  
*Nyutonning ikkinchi va uchinchi qonunlari. Tabiatdagi kuchlar.*

## Reja.

1. Dinamikaning asosiy qonunlari.
2. Jism impulsi. Impulsning saqlanish qonuni.
3. Tabiatdagi o`zaro ta'sirning turlari.

Og`irlilik kuchi , Elastiklik kuchi, Ishqalanish kuchi.

# TAYANCH SO`Z VA IBORALAR.

---

- dinamika, Nyuton qonunlari, inersial sanoq tizimi, impuls, kuch impulsi. ichki kuch, tashqi kuch, gravitatsion, elektromagnit, yadroviy, deformatsiya, elastik, Yung moduli, dissipativ, dumalanish, sirpanish, tinch holat. konservativ kuch, nokonservativ kuch.


# I.DINAMIKANING ASOSIY QONUNLARI.

---

- Mexanikaning dinamika qismida moddiy nuqta yoki jismlarning harakatini bu harakatni yuzaga keltiruvchi sabablar (moddiy nuqta yoki jismlar orasidagi o`zaro ta'sirlar) bilan bog`langan holda o`rganiladi.
- **Nyutonning birinchi qonuni:** Biror jismga berilayotgan boshqa jismlarning ta'sirlari o`zaro muvozanatlashsa jismning harakat holati o`zgarmaydi.

- Jismlarning o`z harakat holatini saqlash xususiyatiga **inersiya** deyiladi.
- Ikki fizik kattalik bilan tanishaylik.
- Kuch-F. Kuch deb jismlarning o`zaro ta'sirlarini ifodalovchi kattalikka aytiladi.
- Massa- m. Jismlarni inersiyasini o`lchash uchun massa degan kattalik kiritiladi.
- **Nyutonning ikkinchi qonuni:** *jism tezligining o`zgarishi ( $\Delta\vartheta/\Delta t$ ) shu jismga ta'sir etuvchi kuchga to`g`ri proporsional bo`lib uning massasiga teskari proporsionaldir, ya'ni*
  - SI tizimida  $m=1\text{kg}$ ,  $a=1\text{m/s}^2$
  - U holda  $F= [m][a]=1\text{kg}\cdot 1\text{m/s}^2=1 \text{ Nyuton}=1\text{N}$  
$$\frac{\Delta \vartheta}{\Delta t} = \frac{F}{m}$$
  - Massasi 1kg bo`lgan jiismga  $1\text{m/s}^2$  tezlanish bera oladigan kuchni
  - 1 Nyuton deb qabul qilingan.

# PHYSICS-ANIMATIONS.COM



$F \cdot \Delta t$ -kuch impulsi,  $d(m\vartheta) = dp$ - impulsni o'zgarishi

Demak (2) ifodadan  $dp = Fdt$

ya'ni *jism impulsining o'zgarishi kuch impulsiga teng.*

$$dp/dt = F$$

Faraz qilaylik bizga 2 ta jismdan iborat yopiq tizim berilgan bo'lsin. Massalari  $m_1$  va  $m_2$  bo'lgan bu jismlarning tezliklari  $\vartheta_1$  va  $\vartheta_2$ , demak impulslari mos ravishda  $p_1$  va  $p_2$  bo'lsin. Jismlar o'zaro ta'sirlashgandan keyin tezliklari  $\vartheta_{11}$  va  $\vartheta_{21}$  bo'lgan bo'lsin

$$\begin{aligned}
 \vec{d p}_1 &= -\vec{d p}_2 \\
 \vec{d p}_1 + \vec{d p}_2 &= 0 \\
 \vec{d} (\vec{p}_1 + \vec{p}_2) &= 0 \\
 \vec{p}_1 + \vec{p}_2 &= \text{const}
 \end{aligned}$$

- *ya'ni bir jismning impulsi qancha ortsa ikkinchisini ki shuncha kamayadi. Bunga impulsning saqlanish qonuni deyiladi.*
- Agar yopiq tizimi n ta jismdan iborat bo`lsa  $p_1 + p_2 + p_3 + \dots + p_n = \text{const}$

### 3.TABIATDAGI O`ZARO TA'SIRNING TURLARI.

---

- Hozirgi zamon fizikasida o`zaro ta'sirning to`rt turi ma'lum.
  1. Gravitatsion o`zaro ta'sir. Bu o`zaro ta'sir butun dunyo o`zaro tortishishi natijasida vujudga keladi.
  2. Elekromagnit o`zaro ta'sir. Bu o`zaro ta'sir elektr va magnit
- maydonlari tufayli amalga oshiriladi.
- 3. Kuchli yadroviy o`zaro ta'sir. Bu o`zaro ta'sir yadrodagi nuklonlarni ya'ni proton va neytronlarni bir-biriga bog`langan holda ushlab turadi.
- 4. Kuchsiz yoki yemirilish o`zaro ta'sir. Bu asosan elementar zarralarni yemirilishida namoyon bo`ladi.

# OG`IRLIK KUCHI.

---

- Ma'lumki mavjud bo`lgan to`rtta o`zaro ta'sirning biri gravitatsion o`zaro ta'siridir. Gravitatsion o`zaro ta'sir tabiatdagi barcha jismlar orasida sodir bo`ladi va u jismlarning tuzilishi ximiyaviy tarkibiga bog`liq. Jismlarning o`zaro tortishishini ifodalovchi qonun Nyuton tomonida aniqlangan bo`lib quyidagicha

$$\vec{F}_{12} = \gamma \frac{\vec{m}_1 \vec{m}_2}{r^2} \frac{\vec{r}}{r}$$

Har qanday jism atrofida gravitatsion maydon vujudga keladi. Gravitatsion maydon modda zarralari orasidagi o`zaro ta'sirnii ifodalovchi materiyaning bir turidir.

Yer sirtiga yaqin turgan balandliklardan barcha jismlar Yerga tortilish kuchi ta'siri ostida Yer sirtiga nisbatan bir hil tezlanish bilan tushadi. Bu Yer bilan bog`langan sanoq tizimida m massali har qanday jismga **og`irlik kuchi** deb ataluvchi

$$p=mg$$

kuchi ta'sir qilishini anglatadi, bunda g-erkin tushish tezlanishi.

Jism **og`irligi** deganda jismni tutib turuvchi taglikka yoki osmaga shu jism tomonidan ko`rsatiladigan ta'sir kuchi tushuniladi.

# ELASTIKLIK KUCHI.

---

- Har qanday qattiq jismga tashqi kuchlar ta'sir etsa uni tashkil etgan zarralarining bir-birlariga nisbatani siljishi natijasida jismning shakli o`zgaradi (siqiladi, cho`ziladi, egiladi, buriladi va x.k.z.). Bunga **defomatsiya hodisasi** deyiladi.
- Agar deformatsiyani yuzaga keltiruvchi kuch har bir konkret jism uchun aniq bo`lgan chegaradan ortiq bo`lmasa, kuchning ta'siri to`xtagandan keyin jism dastlabki o`lchamlarini va shaklini qayta egallaydi va bunday deformatsiya **elastik deformatsiya** deyiladi.

---

INGLIZ OLIMI ROBERT GUK 1660 YILDA ANIQLANGAN  
QONUNGA KO`RA NISBIY UZAYISH KUCHLANISHGA  
PROPORSIONAL  $\frac{\Delta l}{l_0} = k \frac{F}{S}$   $\varepsilon = k\sigma$

bunda  $k$ - elastiklik koeffitsiyenti bo`lib sterjen materialiga  
bog`liq.  $1/K=E$  kattalik Yung moduli yoki **elastiklik moduli**  
deyiladi

# ISHQALANISH KUCHLARI.

---

- qattiq jism suyuqlik yoki gazlarda harakatlansa yoki qattiq jism bo`laklari bir-birining sirti bo`ylab harakatlansa, ishqalanish hodisasi ro`y beradi va **ishaqlanish kuchi** paydo bo`ladi.
- Gorizontal harakatlanayotgan jism uchun bosuvchi kuch og`irlik kuchidir
- $F_{ish} = \mu F_N$

Dumalanayotgan jismning ishqalanish kuchi  
 $F=k N/r$

, bunda  $k$ - dumalanish ishqalanish koefitsiyenti (uzunlik birligida o`lchanadi),  $N$ - normal bosim kuchi,  $r$ - dumalanayotgan jism radiusi .

Sirpanishdagi ishqalanish. Gorizontal sirtda yotgan jismga ta'sir etayotgan gorizontal kuch taglikdagi ishqalanish kuchidan ortiq ( $F>N$ ) bo`lsa, u holda jismning tezlanishi noldan farqli bo`ladi va sirpanish boshlanadi. Sirpanishdagi ishqalanish kuchi tezlik ortishi bilan dastavval kamayadi, keyin orta boshlaydi.